

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2021-yil uchun korporativ boshqaruv tizimini baholashning natijasiga ko‘ra “Comply or explain”(rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyili bo‘yicha

AXBOROTI

“Korporativ boshqaruv Kodeksi” ning 11-bandida Kodeksning muayyan tavsiyalariga rioya etish imkoni bo‘lmagan taqdirda, jamiyat “sompily or explain” (rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyiliga rioya qilgan holda uning sabablarini to‘liq oshkor qilishi belgilangan.

Ma’lumotlar “sompily or explain” (rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyiliga rioya qilingan holda, ommaviy axborot vositalarida, Bankning va “Toshkent” RFB rasmiy korporativ veb-saytlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligining maxsus veb-cayti negizidagi Korporativ axborot yagona portalida e’lon qilinishi ko‘zda tutilgan.

1. “Korporativ boshqaruv Kodeksi”ning 12-band 4-xatboshisida jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ijroiya organining mukofot va kompensatsiyalari miqdorini oshkor etish belgilangan.

Bank mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasini Bank boshqaruvi a’zolarining mehnatiga haq to‘lashni tashkil etish uchun asos sifatida qabul qiladi.

Bank boshqaruvi a’zolariga lavozim okladi, lavozim okladiga ustama haq, mukofot, mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofot va kompensatsiyalarni belgilash Bank ichki normativ hujjatlari, jamoa shartnomasi va tarmoq kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Ushbu ma’lumotlar Bank saytida oshkor qilinmagan.

2. “Korporativ boshqaruv Kodeksi”ning 15-band 8-xatboshisida jamiyat tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yig‘ilishlarida o‘z vakillariga jamiyat nomidan ovoz berish tartibini belgilash talab etilgan.

Bank tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yig‘ilishlarida Bank nomidan ovoz berish tartibi belgilanmagan.